

JOURNAL OF ENVIRONMENTAL AND LAND LAW (JELL)

LAW • ENVIRONMENT • SUSTAINABILITY • JUSTICE

OPEN
ACCESS

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL



OUR FIELDS

- Land law and agrarian relations
- Environmental law and climate change
- Water law and transboundary cooperation
- Urban planning and zoning law
- Natural resources and energy law



OUR INDEXING



Google Scholar



Zenodo



DOI



OpenAIRE



Open Access



DOAJ



<https://unireview.uz/index.php/jell>



Published by
UniLex Global, Uzbekistan



VOLUME 1

ISSUE 1



JUNE 2026



"UNILEX GLOBAL" LLC

Ekologiya va yer huquqi jurnali / Journal of Environmental and Land Law

**June, 2026
VOLUME 1, ISSUE 1**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Members Kholmuminov Juma Toshtemirovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Members Fayziev Shukhrat Khasanovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Members Uzakova Gozal Sharipovna** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Members Narzullaev Olim Kholmamatovich**, Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial board members Kenjaev Rustam Khaydarovich**, Candidate of Legal Sciences (PhD), Professor, Head of the Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Members Utegenov Ongarbay Dariyabayevich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Department of Finance, Tashkent University of Chemical Technology – International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Members Hayitov Hasan Shermatovich** - Candidate of Legal Sciences (PhD), Investigator, Shykhontohur District Division, Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Members Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** - Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) "Academy of Labor and Social Relations" under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Members Nishonov Abdulloh Ubaydulloh ugli** - Senior Lecturer Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Members Makhkamov Durbek Nematovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Dean, Faculty of Public Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Members Usmanov Muhammad Bahritdinovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Members Juraev Yuldash Achilovich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Associate Professor Senior Researcher, Parliamentary Research Institute under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Members Nurmatov Mirgolib Mirzayevich** - Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Special Legal Sciences and Military Diplomacy, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Members Bobokulov Shoxnazar Ochilovich** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Acting Professor, Department of Legal Sciences, Tashkent International University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Members Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna** - Candidate of Legal Sciences, Associate Professor Associate Professor, Department of Environmental Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Members Allayorov Tulqin Ruziqulovich** - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.



Original research article

YEVROPA ITTIFOQI VA MARKAZIY OSIYO: SUV, EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI SOHASIDA XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIK

Xaydarali Yunusov

yuridik fanlar doktori (DSc),

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik

fakulteti tadqiqot markazining yetakchi ilmiy xodimi

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

Yevropa Ittifoqi,
Markaziy Osiyo, ekologiya,
atrof-muhit,
strategiya,
bitim,
dasturlar.

ANNOTATSIYA

Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi global ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, muzliklarning erishi, suv tanqisligi va Orol dengizi inqirozi sharoitida Yevropa Ittifoqi (YeI) va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlik masalalari yoritilgan. Suv, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida YeI va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning yutuqlari, muammolari va istiqbollari tahlil qilingan.

LEGAL BASIS FOR GRANTING STATE LAND PLOTS TO ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT PARTICIPATION AND DIRECTIONS FOR ITS IMPROVEMENT

ARTICLE INFO

Keywords:

European Union,
Central Asia,
ecology,
environment,
strategy,
agreement,
programs.

ABSTRACT

The article highlights the issues of international legal cooperation between the European Union (EU) and Central Asian states in the context of global environmental problems in the Central Asian region, such as climate change, melting glaciers, water scarcity, and the Aral Sea crisis. It analyzes the achievements, challenges, and prospects of international legal cooperation between the EU and Central Asian states in the field of water, ecology, and environmental protection.

ЕВРОПЕЙСКИЙ СОЮЗ И ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ: МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ, ЭКОЛОГИИ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

Европейский Союз,
Центральная Азия,
экология,
окружающая среда,
стратегия,
соглашение,
программы.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются вопросы международно-правового сотрудничества между Европейским Союзом (ЕС) и государствами Центральной Азии в условиях глобальных экологических проблем в Центральноазиатском регионе, таких как изменение климата, таяние ледников, дефицит водных ресурсов и кризис Аральского моря. Анализируются достижения, проблемы и перспективы международно-правового сотрудничества между ЕС и странами Центральной Азии в области водных ресурсов, экологии и охраны окружающей среды.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqlim o'zgarishlari, muzliklarning erishi va Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bugungi kunda global ekologik xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, Yevropa Ittifoqi (YeI) va Markaziy Osiyo (MO) davlatlari o'rtasidagi hamkorlik nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki xalqaro-huquqiy jihatdan ham ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim mexanizmiga aylanmoqda.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategik hujjatlari, xalqaro universal shartnomalar hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davlatlari bilan imzolagan sherikchilik va hamkorlik bitimlari ushbu hamkorlikning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo aholi soni tez o'sib borayotgan va, ayni paytda, suv zaxiralari cheklangan mintaqadir. Bir yilda jon boshiga 1000 kub metrdan kam, ya'ni minimal ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan suv miqdori to'g'ri keladigan davlatlar orasida Markaziy Osiyoning Turkmaniston (206 kub metr) va O'zbekiston (625 kub metr) kabi davlatlari bor. Jahon resurslari institutining tadqiqotlariga ko'ra, Turkmaniston va O'zbekiston suv bilan eng kam ta'minlangan dunyodagi 13 ta mamlakat qatoriga kiradi. Shu bois, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyalarida suv va transchegaraviy daryolar zaxiralaridan foydalanish masalasi e'tibordan chetda qolmagan.

Yevropa Ittifoqining 2007-yilda qabul qilingan "YeI va Markaziy Osiyo: Yangi sherikchilik uchun Strategiya" hujjatida transchegaraviy daryolar va gidroenergetika masalasi

batafsil yoritilgan edi. Birinchi strategiyaning “Energiya va transport aloqalarini kuchaytirish” (*Strengthening energy and transport links*) mavzusidagi paragrafida aytiladiki “Neft, gaz va elektr energiyasidan tashqari, suv resurslarini boshqarish Markaziy Osiyo bilan energetika sohasidagi hamkorlikning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Hidroenergetikani ishlab chiqarish va taqsimlash Markaziy Osiyo va undan tashqarida, jumladan, Afgʻoniston va Pokistonda barqarorlik va farovonlikni ragʻbatlantirishda muhim ahamiyatga ega”[1].

Strategik hujjatga koʻra, Yevropa Ittifoqi yangi neft, gaz va gidroenergetika resurslarini qidirish va mavjud energetika infratuzilmasini modernizasiya qilishni qoʻllab-quvvatlaydi. Mintaqa ichidagi va Yevropaga yoʻnaltirilgan mavjud quvurlarni qayta tiklash hamda yangi quvurlar va elektr transport tarmoqlarini qurishga koʻmak beradi.

Ushbu hujjatning “Ekologik barqarorlik va suv” deb nomlangan paragrafida Markaziy Osiyodagi asosiy ekologik muammolarning aksariyati suv resurslarini taqsimlash, ulardan foydalanish va sifatini muhofaza qilish bilan bogʻliqligi, mintaqa chegaradosh daryolar, koʻllar va dengizlar orqali bogʻlanganligi sababli, ushbu resurslarni himoya qilishda mintaqaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda integratsiyalashgan suv xoʻjaligi siyosati (yuqori va quyi oqimdagi birdamlik) joriy etilishi zarurligi qayd etilgan.

Unda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo respublikalariga ajratadigan yordami quyidagi sohalarni qamrab olishi koʻrsatilgan edi:

- Transchegaraviy daryolar havzasini boshqarish hamda Kaspiy dengizi atrof-muhit konvensiyasi doirasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish;
- Yer usti va er osti transchegaraviy suv resurslarining integratsiyalashgan boshqaruviga, jumladan, suvdan samaraliroq foydalanish texnikasi (irrigatsiya va boshqa texnikalar)ni joriy etishga alohida koʻmak berish;
- Suvni integratsiyalashgan boshqarish va gidroenergetika ishlab chiqarish boʻyicha mintaqaviy salohiyatni qoʻllab-quvvatlash.

Shu maqsadda, Ittifoqning Xavfsiz suv taʼmini va sanitariya hamda suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish boʻyicha Yevropa Ittifoqi Suv tashabbusi (EUWI)ning tarkibiy qismi hisoblangan EECCA (*Eastern Europe, Caucasus, Central Asia (EECCA)*) – Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo) dasturini amalga oshirishni qoʻllab-quvvatlashi taʼkidlangan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yevropa Ittifoqining 2019-yildagi Markaziy Osiyo boʻyicha yangi Strategiyasining

normativ-formal asosi hisoblangan “YeI va Markaziy Osiyo: yanada kuchliroq sherikchilik uchun yangi imkoniyatlar” mavzusidagi Qo‘shma Kommunikatsiyasi [2] hamda ushbu Kommunikatsiya yuzasidan Tashqi ishlar bo‘yicha Kengashning 2019-yil 17-iyunda e‘lon qilingan xulosalarida suv va transchegaraviy suv zaxiralarini boshqarish masalasi yana bir bor o‘z aksini topdi [3].

Kengash xulosalarida ta’kidlanishicha, biologik xilma-xillik va suv zaxiralarini asrash bo‘yicha sa’y-harakatlar faqat jadallashtirilgan muloqot va kuchaytirilgan hamkorlik orqaligina muvaffaqiyat qozonadi. Yevropa Ittifoqi transchegaraviy suv zaxiralarini boshqarish sohasida yanada yaqinroq hamkorlikka chaqiradi hamda bu borada Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining rolini, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya mintaqaviy markazining tashabbuslarini olqishlaydi (9-band).

Yevrokomissiya Kommunikatsiyasining 1.3-bandi (Atrof-muhit, iqlim va suv masalalari bo‘yicha barqarorlikni yaxshilash)da iqlim o‘zgarishlarining ta’sirida Markaziy Osiyoning daryo va irmoqlari boshlanuvchi muzliklarning orqaga chekinishi va aholining tez o‘sishi sababli yuzaga kelgan suv tanqisligi mintaqada oldida turgan ba’zi ekologik muammolarni yanada kuchaytirishi taxmin qilinadi. Bunday holatda Yevropa Ittifoqi atrof-muhit, suv resurslari va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikka nisbatan mintaqaviy yondashuvni davom ettirishi ta’kidlanadi.

Yevropa Ittifoqi Kengashining Suv diplomatiyasi to‘g‘risidagi xulosalariga muvofiq, suv, tinchlik va farovonlik uchun mintaqaviy dasturini ilgari surish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi [4]. Yevropa Ittifoqi BMT agentliklari va boshqa tegishli hamkorlar bilan kelishilgan holda transchegaraviy suv resurslarini adolatli boshqarish yuzasidan mintaqaviy hamkorlikni yaxshilash bo‘yicha o‘zaro maqbul echimlarni ilgari surishda davom etadi. YeI Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Yevropa iqtisodiy komissiyasining Suv konvensiyasiga a’zo bo‘lish va uni amalga oshirishni rag‘batlantiradi, shuningdek, 2018-yil 12-avgustda Oqtouda imzolangan Orol dengizi mintaqasida hamkorlik va Kaspiy dengizining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi bitimni amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

Yevropa Ittifoqi mintaq bilan hamkorlikni suv resurslarini kompleks boshqarishni rag‘batlantirish, oqova suvlarni kamaytirish, suv sifatini yaxshilash, shuningdek, suv infratuzilmalarini modernizasiya qilish va zamonaviy qishloq xo‘jaligi sug‘orish tizimlarini rivojlantirishni davom ettirish maqsadida mutaxassislar tayyorlash orqali qo‘llab-quvvatlaydi.

Mintaqa tabiiy va texnogen tahdidlarga moyil bo‘lganligi sababli, Yevropa Ittifoqi tabiiy

ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha yangi siyosat va qonunlarni qabul qilish yo'lida milliy va mintaqaviy harakatlarga ko'mak beradi. Shuningdek, YeI o'z tajribasi bilan o'rtoqlashgan holda fuqarolik muhofazasi va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib yanada tizimli yondashuvni ilgari suradi.

Suv masalasi bilan birgalikda va uzviylikda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ham YeI-Markaziy Osiyo hamkorligining ustuvor yo'nalishlardan biridir. Mazkur yo'nalishda WELOOP (Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'yicha muloqot) va CAWEP (Markaziy Osiyo suv-energetika dasturi) kabi dasturlar ekologiya sohasidagi o'zaro hamkorlikning muhim mexanizmiga aylangan.

Qayd etish joizki, Yevropa Ittifoqi Orolbo'yi mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda sezilarli yordam bermoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining moliyaviy-texnik ko'magi doirasida qiymati 5,2 mln. evro bo'lgan "Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheeriklik trast fondiga YeIning hissasi" loyihasi amalga oshirilmogda. Bundan tashqari, YeI-Markaziy Osiyo hamkorligi quyidagi maqsadli dasturlar va ular doirasidagi faoliyatni ham o'z ichiga oladi:

- Xavfsiz suv ta'minoti va sanitariya hamda suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish bo'yicha Yevropa Ittifoqi Suv tashabbusi (EUWI)ning tarkibiy qismi hisoblangan EECCA (*Eastern Europe, Caucasus, Central Asia (EECCA)*) - Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo) dasturi;

- O'rmon qonunchiligini qo'llash va boshqarish bo'yicha vazirliklar jarayoni (*Forest Law Enforcement and Governance Ministerial process (FLEG)*) doirasida Indikativ harakatlarning mintaqaviy jihatlariga yordam berish orqali Markaziy Osiyoda o'rmonlar va boshqa tabiiy resurslarni barqaror boshqarishni takomillashtirish;

- Ekologik xabardorlikni oshirish va ekologik fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (*Central Asia Regional Environment Centre (CAREC)*) bilan hamkorlik qilish orqali rag'batlantirish.

Umumlashtirib aytganda, Yevropa Ittifoqining birinchi va ikkinchi strategiyalari uchun asos bo'lgan hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019-yilgi yangi Strategiyada transchegaraviy suv zaxiralaridan foydalanish masalasiga juda ehtiyotkorona yondashilgan. Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvlardan gidroenergetik maqsadda foydalanish nozik siyosiy masala sifatida qaralgan. Yangi strategiyada transchegaraviy daryolar suvidan gidroenergetik maqsadda foydalanish mavzusi ko'tarilmaydi. Ayni paytda suv va xavfsizlik o'rtasidagi uzviylik yaqqol e'tirof etilgan.

Suv, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida YeI va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlik, ham ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar, ham mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar tizimiga asoslanadi.

NATIJALAR

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Xelsinki konvensiyasi [5] doirasida Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoning konvensiyaga a'zo – Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Mazkur konvensiya transchegaraviy suv resurslarini adolatli va ekologik xavfsiz boshqarishning huquqiy mezonlarini belgilaydi.

YeI va Markaziy Osiyoning 5 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan Iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij Bitimi tomonlar o'rtasida issiqxona gazlarini kamaytirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha xalqaro hamkorlik asoslarini yaratadi [6].

Nihoyat, Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlar (ShHB) hamda Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlar (KShHB) doirasida Yevropa Ittifoqi va uning a'zo davlatlari bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston) o'rtasida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning shartnomaviy mexanizmlari o'rnatilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi va uning a'zo davlatlari bilan O'zbekiston o'rtasida 1996-yil 21-iyunda imzolangan va 1999-yil 1-iyulda kuchga kirgan Sherikchilik va hamkorlik bitimining muqaddima qismi, 54-moddasi ("Atrof-muhit va inson salomatligi") va boshqa moddalarida suv, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha hamkorlik qoidalarini o'z aksini topgan [7]. Bitimning 54-moddasi 2-bandiga ko'ra, atrof-muhitning yomonlashuviga qarshi kurashish umumiy maqsad sifatida belgilanib, hamkorlik quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi: suv sifati va muhofazasi, atrof-muhitni ekologik jihatdan tiklash choralari, ifloslanish darajasini samarali monitoring qilish va atrof-muhit holatini baholash, ekologik ahvol to'g'risida axborot tizimini yaratish, chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza etiladigan hududlar hamda biologik resurslarni barqaror boshqarish va ulardan foydalanish, o'rmonlarni muhofaza qilish, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha Espo konvensiyasini hayotga tatbiq etish, sanoat korxonalari xavfsizligini ta'minlash hamda kimyoviy moddalarni klassifikatsiyalash va xavfsiz ishlatish.

54-moddaning 3-bandi esa hamkorlikni amalga oshirish shakllari va metodlarini aniqlashtiradi. Jumladan, ekologiya sohasidagi hamkorlik quyidagi metodlar orqali amalga oshirilishi belgilangan: ofatlarni rejalashtirish va boshqa favqulodda vaziyatlar bo'yicha

harakatlar; axborot va ekspertlar almashinuvi; qo‘shma ilmiy-tadqiqot faoliyati; qonunchilikni Yevropa Ittifoqi standartlariga yaqinlashtirish; mintaqaviy darajada (xususan, Yevropa atrof-muhit agentligi doirasida) va xalqaro darajada hamkorlik qilish; global va iqlim masalalari bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqish hamda atrof-muhitga ta’sirni baholash tadqiqotlarini o‘tkazish.

2022-yil 6-iyul kuni Bryussel shahrida parafe qilingan O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (KShHB) ikki tomonlama hamkorlik qamrovini yanada kengaytirdi va yangi mexanizmlar bilan boyitdi. Bitimda suv resurslarini boshqarish va ekologik xavfsizlik masalalari Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikning muhim omili sifatida e’tirof etilgan. Atrof-muhitning barqarorligi va muhofazasini ta’minlash, jumladan, transchegaraviy hamkorlik hamda tomonlar a’zo bo‘lgan ko‘p tomonlama ekologik bitimlarni hayotga tatbiq etish maqsadlari bayon etilgan. BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi doirasida 2015-yil 12-dekabrda qabul qilingan Parij bitimiga muvofiq, iqlim bo‘yicha harakatlarning barcha sohalarida hamkorlikni kuchaytirish ko‘zda tutilgan [8].

MUHOKAMA

Umumiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suv, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida YeI va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ko‘p yillik xalqaro-huquqiy va institusional hamkorlik natijasida bir qator sezilarli natijalarga erishildi.

Birinchidan, izchil institutsional muloqot yo‘lga qo‘yildi, “YeI – Markaziy Osiyo” yuqori darajadagi platformasi doirasida Atrof-muhit va suv resurslari bo‘yicha ishchi guruh doimiy faoliyat yuritmoqda. Bunday tuzilmalar transchegaraviy suv muammolarini huquqiy tartibga solishda muhim maydon hisoblanadi.

Ikkinchidan, “yashil Markaziy Osiyo” (Green Central Asia) tashabbusi yo‘lga qo‘yildi. Germaniya Tashqi ishlar vazirligi va YeI ko‘magida amalga oshirilayotgan ushbu mintaqaviy dastur suv xavfsizligi va iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirishda xalqaro huquq normalarini qo‘llashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (*Central Asia Regional Environment Centre (CAREC)*) faoliyati kuchaytirildi. YeI ko‘magida tashkil etilgan ushbu tuzilma suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish tamoyillarini mintaq davlatlari qonunchiligiga kiritishda huquqiy-konsultativ yordam ko‘rsatib kelmoqda.

To‘rtinchidan, Yevropa Ittifoqi tomonidan mintaq uchun sezilarli moliyaviy-huquqiy ko‘mak ko‘rsatilmoqda. YeIning WECOP (Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim

o‘zgarishi bo‘yicha muloqot) loyihasi doirasida Markaziy Osiyo davlatlarida ekologik nazorat tizimi YeI standartlariga yaqinlashtirilmoqda.

YeI va Markaziy Osiyo aloqalaridagi ijobiy tendensiyalarga qaramay, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida hamkorlik samaradorligini cheklovchi bir qator tizimli huquqiy muammolar mavjud. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik normativlari va milliy standartlari YeIning ilg‘or ekologik direktivalari va reglamentlari bilan to‘liq uyg‘unlashmagan.

Shunday bo‘lishiga qaramay, suv, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida YeI va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning istiqbollari katta imkoniyatlarga ega. Hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, “Team Europe” tashabbusini kengaytirish hamda YeIning suv, energiya va iqlim bo‘yicha mintaqaviy tashabbusi doirasida investitsiyalarni huquqiy kafolatlash va “yashil” loyihalarni moliyalashtirishni kuchaytirish;

Ikkinchidan, “Global Gateway” strategiyasini Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy va mahalliy dasturlari bilan integratsiyalash orqali mintaqada raqamli suv hisoblagichlari, suv tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning xalqaro shartnomaviy-huquqiy bazasini yaratish;

Uchinchidan, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo ekologik qonunchiligini kodifikatsiyalash va uyg‘unlashtirish hamda mintaqa davlatlari milliy qonunchiligiga YeIning “Yashil kelishuv” (EU Green Deal) tamoyillarini va chiqindilarni boshqarish, havo sofligini saqlashga oid direktivalarini bosqichma-bosqich implementatsiya qilish;

To‘rtinchidan, iqlim diplomatiyasini kuchaytirish. Bunda transchegaraviy ekologik nizolarni xalqaro hakamlik va sudlov mexanizmlari orqaligina emas, balki YeI vositachiligida huquqiy konsultatsiyalar, muzokaralar va yashtiruv vositalari asosida hal etish tizimini ham rivojlantirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoning ekologik hamkorligi faqatgina moliyaviy grantlar ajratish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Mintaqada barqaror tinchlik va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning yagona yo‘li – xalqaro suv va ekologiya huquqi normalarini tan olish, ikki va ko‘p tomonlama shartnomaviy majburiyatlarni qat‘iy bajarish hamda YeIning ilg‘or institutsional tajribasini mintaqaviy voqelikka moslashtirgan holda tatbiq etishdir.

REFERENCES

1. The EU and Central Asia: Strategy for a New Partnership. Council of the European Union, Brussels, 31 May 2007, 10113/07/PESC 655/COEST 179: <http://register.consilium.europa.eu/pdf/en/07/st10/st10113.en07.pdf>
2. Joint Communication to the European Parliament and the Council. The EU and Central Asia: New Opportunities for a Stronger Partnership. Official Document of the European Commission and High Representative of the Union for Foreign Affairs and Security Policy /Brussels, 15.05.2019 JOIN (2019) 9 final. The text derived from the official source: https://eeas.europa.eu/sites/default/files/joint_communication_-_the_eu_and_central_asia_-_new_opportunities_for_a_stronger_partnership.pdf
3. Council Conclusions on the New Strategy on Central Asia /Official Document of the Council of the European Union/Brussels, 17 June 2019_ (OR. En) 10221/19_COEST 139 (English). The text derived from the official source: <https://www.consilium.europa.eu/media/39778/st10221-en19.pdf>
4. Сув дипломатияси – Кенгаш хулосалари, 2018 йил 19 ноябрдаги 13991/18 -сонли хужжат (Water Diplomacy – Council conclusions, 13991/18 of 19 November 2018).
5. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes (Helsinki, March 17, 1992): <https://unece.org/DAM/env/water/pdf/watercon.pdf>
6. United Nations Framework Convention on Climate Change: https://unfccc.int/sites/default/files/resource/parisagreement_publication.pdf
7. Partnership and Cooperation Agreement establishing a partnership between the European Communities and their Member States, of the one part, and the Republic of Uzbekistan, of the other part. Official Journal of the European Communities L 229/3 of 31.8.1999: https://eur-lex.europa.eu/resource.html?uri=cellar:3fc91869-1662-40ed-a106-b5015b71b1b6.0019.02/DOC_1&format=PDF
8. Enhanced Partnership and Cooperation Agreement between the European Union and its Member States, of the one part, and the Republic of Uzbekistan, of the other part: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=OJ:L_202600918